

Oliy Majlis Senatining oʻn birinchi yalpi majlisida “Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi Qonun koʻrib chiqildi. Mamlakatimizda haydovchilar va piyodalarning yoʻl harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirish, haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, yoʻl harakatining tashkil etilishini toʻliq raqamlashtirish uchun huquqiy asoslar yaratilgan.

Yoʻllarda tartib boʻlishi uchun...

Buning natijasida joriy yilning 8 oyi davomida respublika-mizdagi umumiy yoʻl-transport hodisalari 2,4 foizga, tan jarohati bilan bogʻliq holatlar 1,5 foizga, oʻlim bilan bogʻliq holatlar 5,6 foizga, piyodalar ishtirokida sodir etilgan yoʻl-transport hodisalari soni esa 1,6 foizga kamaydi.

Shu bilan birga, maʼmuriy huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarimizda maʼmuriy huquqbuzarliklarni sodir etishga nisbatan immunitetni shakllantirish, ularni qonunga itoatkor etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar kutilgan natijani bermayapti.

Ayrim xorijiy davlatlarda maʼmuriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jarima jazolaridan tashqari “ogʻzaki ogohlantirish” va “ogohlantirish” jazosi borligi, bunda birinchi marta kam ahamiyatli maʼmuriy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarni jarimaga tortish oʻrniga, sodir etgan qilmishining ijtimoiy oqibatlarini tushuntirgan holda ogohlantirish amaliyotida bunday qilmishlar sodir etilishining oldini olishda yuqori natijalarga erishilayotganligi kuzatilmoqda.

Qonun bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga yoʻl harakati xavfsizligi bilan bogʻliq boʻlgan kam ahamiyatli huquqbuzarliklar uchun maʼmuriy ogohlantirish jazosi qoʻllanilishini, maxsus avtomatlashtiril-

gan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etiladigan maʼmuriy huquqbuzarliklarning roʻyxatini hamda bunday texnika vositalari orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilishi muddatlari aniq belgilanishini nazarda tutuvchi qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Birinchidan, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks yangi 171-moddaga bilan toʻldirilib, foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etiladigan qoidabuzarliklarning turi aniq belgilanmoqda.

Ikkinchidan, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks 241-moddaga bilan toʻldirilib, maʼmuriy jazo sifatida maʼmuriy ogohlantirish chorasini kiritilmoqda.

Uchinchidan, yoʻl harakati qoidalarini buzilganligi maxsus texnika vositalari orqali qayd etilgan holda maʼmuriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan eʼtiboran bir oydan kechiktirmay qoʻllanilishi aniq belgilab qoʻyilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi avtomobillardan foydalanishda aholiga qoʻshimcha qulayliklar yaratilishiga, maʼmuriy huquqbuzarliklarning oldini olishga, shuningdek, aholining davlat organlariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi taʼkidlandi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

Birlamchi tizim toʻgʻri ishlasa tibbiyot toʻgʻri yoʻlda boʻladi

Har bir shifokor birlamchi boʻgʻinda ish yaxshi ketsa, oʻsha hududda salomatlik bilan bogʻliq vaziyat yaxshilanishi, bemorlar ahvoli u darajada ogʻir boʻlmasligini yaxshi biladi. Ammo bilishning oʻzi kifoya qilmaydi. Bu tizimga yangicha yondashuv va islohotlar zarur. Muhim oʻzgarishlardan biri davlatimiz rahbarining “Respublikada sogʻliqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat koʻrsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoniga koʻra amalga oshirila boshlandi.

Bu oʻzgarishlar namuna sifatida tanlab olingan Bulungʻur, Ishtixon tumanlari hamda Samarqand shahridagi oilaviy poliklinikalar faoliyatida oʻz aksini koʻrsata boshladi. Xususan, Ishtixon tumani tibbiyotidagi oʻzgarishlar fonda tizim rahbari ham almasildi. Ushbu islohotlarni amalga oshirish uchun Sogʻliqni saqlash vazirligining tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti tarkibida faoliyat yuritib, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini muvofiqlashtirish yoʻnalishida respublika miqyosidagi islohotlarga bevosita boshchilik qilgan Sunnatulla Safarov ishg'a keldi. Oʻzgarishlar qisqa fursatda boʻy koʻrsata boshladi.

Birlamchi tibbiyot toʻgʻri ishlasa, barcha shifokorlarning ishi yengillashadi, chunki profilaktika aynan shu boʻgʻinda amalga oshirilishi kerak, - deydi Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasi rahbari, II darajali “Salomatlik” ordeni sohibi Sunnatulla Safarov. – Mamlakatimiz rahbari farmonida belgilangan maqsadlar ham aynan shu masalaga qaratilgan. Kadrlar bilan bir qatorda tizimning oʻzida ham qator oʻzgarishlar pilot tuman sifatida aynan bizning hududdan boshlandi. Xususan, joriy yilning iyul oyidan tuman hududidagi 45 ta tibbiyot muassasasi negizida 29 ta yangi oila poliklinikasi tashkil etildi. Bu ja-

rayon “Tibbiyotda 90 kunlik oʻzgarishlar” dasturi doirasida olib borilib, tuman aholisi uchun tibbiy xizmatlarning sifat va qulayligini sezilarli darajada yaxshiladi. Mazkur tashabbusga 2,2 milliard soʻm budget mablagʻi, 2 milliard soʻm homiylik mablagʻlari yoʻnaltirildi.

Endilikda tuman aholisi ilgari faqat markazda mavjud boʻlgan 8 turdagi tibbiy xizmatni oʻz mahallasida olmoqda. Aholining 99 foizi elektron tizimda oila shifokorlariga biriktirilib, ularning salomatligi haqidagi malumotlar yagona elektron bazada yuritilmoqda. Bu nafaqat bemorlar uchun qulaylik, balki tibbiyot xodimlari faoliyatini ham ancha yengillashtirdi.

Tuman boʻyicha 29 ta tibbiyot muassasasi 910 dan ortiq kompyuter texnikasi bilan jihozlanib, barcha jarayonlar raqamlashtirildi. Yagona elektron tizim asosida bemorlarni roʻyxatga olish, shifokor qabuliga yozilish, yoʻllanma va retseptlarni elektron shaklda yuritish yoʻlga qoʻyildi.

Eng muhim yengiliklardan biri markazlashgan laboratoriya tizimining tashkil etilishi boʻldi. Bu tizimda barcha jarayonlar - namunalarni kodlash, tahlil natijalarini uzatish, ularni tasdiqlash toʻliq avtomatlashtirildi. “Elektron sogʻliqni saqlash” tizimining bir qismi



sifatida joriy etilgan ushbu loyiha inson omili bilan bogʻliq xatoliklarni kamaytirib, xizmat koʻrsatish tezligi va aniqligini oshirdi.

Har qanday yangilik garchi u yengillik boʻlsa-da, amaliyotga osonlik bilan tatbiq etilmaydi. Yuqorida qayd etilgan oʻzgarish ham tizimda masʼuliyat, intizom va bilim tufayligina joriy etilayotgani sir emas. Bu mehnat esa eʼtibordan chetda qolayotgan emas. Prezidentimiz farmoniga koʻra, tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan sohaning bir guruh fidoyilari qatorida Sunnatulla Safarov II darajali “Salomatlik” ordeni bilan taqdirlandi. “Bu mukofot tumandagi barcha birlamchi tibbiyot vakillari uchun berilgan, deb oʻylayman”, - deydi S.Safarov mukofot bilan tabrigimizga javoban.

Matluba RABBIMOVA,
jurnalist.



Talabalar sharoiti yaxshilandi

Transport masalasi ham hal etilishi kutilmoqda

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

– Ammo institutimizga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra qurilish ishlari boshlanmay turibdi. Bu masalani viloyat hokimi shaxsan nazoratga olishini bildirdi. Xullas, joriy yilning yozida ushbu binoga koʻchdik. Bino katta, oʻquv xonalaridan tashqari sport zal, oshxona bor. Faqatgina ancha vaqt foydalanilmaganligi tufayli taʼmirlab boʻlib qolgan ekan. Institutimiz rahbariyati oʻquv yili boshlangunga qadar binoning foydalaniladigan xonalarini taʼmirlab berdi. Qoʻldan kelgancha bu yerni obod qilib, ishni boshladik. Hududda gaz bosimi pastligi bois binonin isitishda muammo yuzaga keldi. Viloyat hokimi kelib ketgandan soʻng gaz va koʻmirga moslangan isitish qozonlari oʻrnatildi va hozir xonalar isitila boshlandi. Koridorlarda isitish batareyalari yoʻqligi sababli isitish muammo boʻlayotgandi, endilikda bu muammo ham hal boʻlmoqda.

Viloyat rahbari muassasada boʻlganida talabalar Samarqand shahridan bu yerga qatnashda avtobus yetishmasligini ham bildirgandi. Chunki Samarqand shahridan Gulobod qoʻrgʻoniga birgina 9-yoʻnalishdagi avtobus qatnovi yoʻlga qoʻyilgan va bu avtobuslar ham kam va kichik hajmli boʻlgani uchun talabalarining oʻz vaqtida darslarga kelib-ketishida muammolar yuzaga kelmogʻda.

Viloyat transport boshqarmasi masʼul-larining maʼlum qilishicha, bugungi kunda Samarqand shahrini Gulobod qoʻrgʻoni bilan bogʻlovchi ikkita yoʻnalishda yoʻlovchi tashish yoʻlga qoʻyilgan. Ular 9-sonli “Ipak yoʻli bozori-Gulobod qoʻrgʻoni” avtobus yoʻnalishi (12 ta avtobus) hamda 450-sonli “Gulobod eko agrologistika bozori-Ipak yoʻli bozori” taksi yoʻnalishi (20 ta mikroavtobus) hisoblanadi.

Samarqand shahrini Gulobod qoʻrgʻoni bilan bogʻlovchi M2-sonli “Hazora ABB-Gulobod qoʻrgʻoni” yoʻnalishida transport vositalari harakati yoʻlga qoʻyilgan edi. Biroq Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrda-gi “Oʻzbekiston Respublikasida avtomobil transportida yoʻlovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yoʻlovchilar tashish xavfsizligini taʼminlashga doir talablarni tasdiqlash haqidagi”gi qarori talablarini bajarish maqsadida M2-sonli “Hazora ABB-Gulobod qoʻrgʻoni” yoʻnalishi shahar chegarasida toʻxtatildi. Qarorda shahar avtobus yoʻnalishlari koʻpi bilan 2 kilometr shahardan tashqariga chiqishi belgilangan.

Bugungi kunda Prezidentimizning yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash, yoʻl-transport infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishidagi topshiriqlar ijrosini taʼminlash maqsadida ushbu yoʻnalishni Samarqand shahar transport Bosh rejasida koʻrsatilgan holatiga qaytarish boʻyicha hujjatlar tayyorlanmoqda. 2026-yil yanvar oyidan boshlab M2-sonli “Hazora ABB-Gulobod qoʻrgʻoni” yoʻnalishi Gulobod qoʻrgʻonigacha uzaytiriladi.

– Talabalarimizning uzoq masofadan qatnashini hisobga olgan holda 1-bosqich uchun institutning bosh binosidan oʻquv auditoriyalari ajratildi, - deydi fakultet dekani. – Ular shaharda, institutning oʻzida oʻqiyapti. Yuqori



bosqichdagi talabalar esa mazkur oʻquv binosida ikki navbatda taʼlim olyapti. Talabalarning 490 nafari shu hududdagi mahallalarda ijara uylarda istiqomat qilmoqda. Oʻzim ijara xonadonlarni borib koʻrdim, sharoitlari yaxshi. Ijara puli oʻrtacha 500 ming soʻm atrofida va uning 208 ming soʻmi institut tomonidan toʻlib berilyapti. Ammo shahardagi talabalar turarjoyida yashaydigan, uyidan qatnaydigan talabalar biroz qiynalyapti.

TALABALAR 4 KUN OʻQIYDI, 2 KUN AMALIYOTDA BOʻLADI

Fakultetda taʼlim jarayoni 4+2 dasturi asosida yoʻlga qoʻyilgan ekan, yaʼni talabalar hafta davomida 4 kun darsda qatnashadi, 2 kun maktabga amaliyotga boradi. Talabalarga ingliz tilidan tashqari, nemis, fransuz, ispan, arab, xitoy tillaridan biri ikkinchi xorijiy til sifatida oʻrgatiladi.

– Yangi tartibga koʻra, chet tillar institutiga oʻqishga kirish istagida boʻlgan abituriyentlar til bilish boʻyicha kamida B2 darajaga ega boʻlishi kerak, - deydi G.Boltaqulova. – Ikki yildan beri bunday tartib amalda qoʻllanyapti. Shuning uchun birinchi va ikkinchi kurslarimizning deyarli hammasida til bilish sertifikatini bor. Uchinchi va toʻrtinchi bosqich talabalarining 60 foizida sertifikat mavjud. Qolganlariga ham darsdan keyin tajribali oʻqituvchilarimiz tomonidan qoʻshimcha darslar yoʻlga qoʻyilgan. Institutning modul platformasida til bilish darajasini aniqlovchi testlar joylashtirilgan. Talabalar har ikki oyda ushbu platforma orqali oʻz bilimlarini sinovdan oʻtkazadi. Natijasi yaxshi chiqqanlar sertifikat olish uchun harakatni boshlaydi. Endi maktabga ishga kir-moqchi boʻlgan chet til oʻqituvchisida kamida B2 darajali sertifikat boʻlishi kerak. Sertifikati yoʻq oʻqituvchilar ishga qabul qilinmaydi.

Fakultet professor-oʻqituvchilari har yili xorijiy oliy taʼlim muassasalarida malaka oshirib kelmogʻda. Masalan, oʻtgan oʻquv yilida 16 nafar oʻqituvchi Malayziyaning Sultan Idris universitetida boʻldi. Xorijda malaka oshirib kelgan oʻqituvchilar chet tilni oʻrganish boʻyicha mobil ilovalar yaratyapti. Mobil ilovaning afzalligi shundaki, talaba barcha darsni toʻliq oʻzlashtira olmasa, yaʼni undagi vazifalarni bajara olmasa, keyingi bosqichga oʻta olmaydi.

Institutda KPI tizimi joriy qilingan. Yangi oʻquv yilidan KPIda yaxshi ball toʻplagan oʻqituvchilarning 162 nafariga 30, 40, 50 foizli ustama puli berilyapti. Bu ragʻbat oʻqituvchilarning oʻz ustida ishlashiga qiziqishni oshirdi.

Xurshida ERNAZAROVA.

AMERIKA SEHRLI DIYOR

Ammo qoʻl yetmas emas

Keyingi yillarda AQSh va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlar yangi bosqichga koʻtarildi, turli sohalarida hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Oʻzaro savdo hajmi, tarmoqlarga sarmoya kiritish, taʼlim, tibbiyot, IT va boshqa koʻplab sohalarida qoʻshma loyihalar amalga oshirilmoqda.



Davlatimiz rahbarining AQShga tashrifi chogʻida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida aloqalarni kengaytirish, ishga solinmagan imkoniyatlardan birgalikda foydalanish maqsadida muhim kelishuvlarga erishildi.

AQSh davlat departamenti eʼlon qilgan maʼlumotga koʻra, Prezidentimizning Vashingtonga tashrifi chogʻida sanoat, aviatsiya, qishloq xoʻjaligi, mineral resurslar va xavfsizlik sohalarida hamkorlik masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan.

Jumladan, aniqlangan mineral konlardan birgalikda foydalanish, muhim minerallar va nodir metallar taʼminoti zanjirini mustahkamlash, kichik modulli reaktorlar sotib olish, aviatsiya, qishloq xoʻjaligi sohasida hamkorlikni kengaytirishga kelishib olingan.

Shuningdek, avtomobil qismlari

importi, “UzAuto Motors” kompaniyasini xususiyashtirish jarayonida AQSh kompaniyalari ishtirokini kengaytirish, Oʻzbekistonda metanol ishlab chiqarish majmuasi qurilishi, mahalliy metanol bilan olinib ishlab chiqarish, koʻmirdan kimyoviy mahsulotlar olish borasida ham bitimlar tuzilgan. Xavfsizlik va qonun ustuvorligi sohasida ikki davlat xalqaro jinoiy tashkilotlarga qarshi kurashda maʼlumot almashadi, noqonuniy migratsiya va giyohvand moddalarni savdosiga qarshi choralarini kuchaytiradi.

Massachusetts shtati, Boston shahridagi “NORTHEASTERN UNIVERSITY”ning moliya va boshqaruv hisobi fakultetida oʻqib yurgan paytlarimda AQShning iqtisodiy imkoniyatlari, u yerdagi zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarga ajratilayotgan sarmoyalarga guvoh boʻlganman. Bu davlatning iqtisodiy imkoniyatlari va potentsiali juda katta. Amerika kompaniyalari zarur texnologiyalar va moliyaviy imkoniyatlarga ega, shu bilan birga, volfram va molibden kabi muhim minerallardan tayyorlangan mahalliy mahsulotlarning uzoq muddatli isteʼmolchilari hisoblanadi.

Prezidentimiz 6-noyabr kuni Vashington shahrida AQShning yetakchi kompaniyalari, investitsiya

fondlari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan uchrashuv oʻtkazgandi. Davlatimiz rahbari Oʻzbekiston bilan AQSh oʻrtasidagi strategik sheriklikning asosiy yoʻnalishlari sifatida energetika, strategik xomashyo, logistika va IT sohalariga alohida eʼtibor qaratdi.

Viloyatimizda hozirda AQSh kapitali ishtirokida jami 18 ta, shundan 14 ta qoʻshma korxona hamda 4 ta xorijiy korxona faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Samarqand shahrida salqin ichimliklar ishlab chiqaruvchi MAROKAND PENSYLVANIA TRADE” QK, “BOUTIQUE HOTEL MEDINA” MChJ mehmonxona xizmati yoʻnalishida, Nurobod tumanida “BILOBEK BOBUREK BIZNES” qoʻshma korxonasi savdo xizmatini koʻrsatib bormogʻda.

2024-yilda 4 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida AQShdan 4,1 million dollar investitsiya mablagʻlari oʻzlashtirildi. Xususan, “SAMIT GLOBAL INC” negizida IT markazini tashkil etish loyihasi doirasida 3 million dollar xorijiy investitsiya mablagʻlari jalb etildi.

2025-yilning birinchi yarim yilida 6 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida AQSh davlatidan jami 38,8 million dollar xorijiy investitsiya mablagʻlari oʻzlashtirildi. Xususan, “Sam ever green” MChJ tomonidan quyosh stansiyasi tashkil etish loyihasi doirasida 14 million dollar, “SAMARQAND OXYGEN SERVICE” MChJ tomonidan savdo markazi tashkil etish loyihasi doirasida 4,5 million dollar xorijiy investitsiya yoʻnaltirildi. Ikki davlat oʻrtasida aloqalar yaxshilanishi doirasida jalb etiladigan sarmoyalarni hajmi ham ortib bormogʻda.

Viloyatimizning AQSh bilan oʻzaro tovar aylanmasi 10 million dollarni tashkil etib, 2,4 million dollarlik mahsulot eksportga chiqarilgan. AQShga asosan mayiz, gilam va gilam mahsulotlari, qalampir, quritilgan va konservalangan meva-sabzavotlar, ichimliklar sotilgan.

Sheroz SOBIROV,
viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshligʻining birinchi oʻrinbosari.



Prezidentimizning 2025-yil 7-avgustdagi “Samarqand viloyatini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan “Samarqand invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati viloyat hokimligi muassisligida tuzilgan. Bu orqali viloyatning investitsiya muhitini yaxshilash, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish maqsad qilingan.

“Samarqand Invest” kompaniyasi davlat va biznes o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifasi — viloyatda zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish, o‘zaro manfaatli hamkorlik tizimini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Shuning-

“Samarqand Invest kompaniyasi” tashkil etildi

Mablag‘lar qaysi sohalarga yo‘naltiriladi?

dek, kompaniya faoliyatida ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, shahar va tumanlarning me‘moriy qiyofasini yangilash hamda aholi uchun ochiq jamoat maydonlari va yashil hududlar sonini ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kompaniya davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, yer uchastkalari, infratuzilma, loyiha-ofislar va boshqa zarur resurslarni taqsimlash orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonini soddalashtirish vazifalarini bajaradi. Shuningdek, viloyat infratuzilma va transport tarmoqlarini rivojlantirish, mustahkamlash, shaharsozlik obyektlari uchun muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini yaratish va moddiy bazani zamon talablari asosida yangilash maqsad

qilingan.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, zarur mablag‘larni jalb etish hamda bdjet va xususiy mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta‘minlash ham kompaniyaning vazifalari sirasiga kiradi.

Kompaniya “Samarqand viloyatini rivojlantirish jamg‘armasi” mablag‘larini boshqarish huquqiga ega. Yangi faoliyat boshlagan invest kompaniyasi oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘g‘ri anglagan holda ushbu jamg‘armaning dolzarb infratuzilma loyihalari, kommunal va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Feruz ABILOV,
“Samarqand invest kompaniyasi”
boshqaruv raisi.

Yonimizdagi odamlar



Har bir davr o‘z qahramonlarini yaratadi. Ular orasida shunday insonlar borki, hayoti, mehnati va odob-axloqi bilan butun bir avlodga namuna bo‘ladi. Ana shunday fidoyi insonlardan biri **Norbekov Nuriddin Mahmudovich – jonkuyar tibbiyot xodimi, insoniyatga xizmat qilishni hayot mazmuniga aylantirgan sofdil inson.**

QALBI – NUR, AMALI – SHIFO

Nuriddin Norbekov 1965-yil 17-noyabr kuni Xatirchi tumanidagi Jizmon qishlog‘ida dunyoga kelgan. Katta va mehnatsevar oilada voyaga yetgan bola yoshligidan halol mehnat, insonparvarlik va odob-axloqni o‘z hayoti mezoniga aylantirgan.

1973-yil 1-sentabrda maktab ostonasini hatladi. O‘qish davrida ham barcha sinfdoshlari orasida jonkuyarligi, pok niyati va izlanuvchanligi bilan ajralib turardi. Uyi maktabdan uzoq bo‘lgani sababli ko‘pincha do‘stlarining uyida turib, birga dars tayyorlardi. Ilmga ishtiyoqi, mas‘uliyat hissi va sabr-toqat unda yoshlikdan shakllangan.

Bizning yoshligimiz samimiyat, do‘stlik va fidoyilik davri edi. Eng esda qolarli lahzalardan biri -1983-yilning 7-may kuni Moybuloqda bo‘lib o‘tgan maktablar orasidagi futbol musobaqasida ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritganimiz bo‘ldi. Bu g‘alaba biz uchun nafaqat sport yutug‘i, balki do‘stlik va birdamlik ramzi edi.

Shu yili Nuriddin maktabni tamomlab, dekabr oyida harbiy xizmatga ketdi. Harbiy xizmat uning irodasini mustahkamladi, sabr va intizomni hayotining asosiy qoidasiga aylantirdi.

1987-yilda u Samarqand tibbiyot bilim yurtiga o‘qishga kirdi. 1991-yildan boshlab Tog‘chinqo‘q qishlog‘ida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. O‘ttiz yildan ziyod faoliyati davomida Nuriddin Norbekov minglab insonlarga shifo baxsh etdi, ko‘plab oilalarga sog‘lom hayot in‘om qildi.

Uning mehnati, fidoyiligi va mehr-muruvvati nafaqat shogirdlari, balki butun hamkasblariga namuna bo‘lib kelmoqda. Sovuq qishda, yomg‘irli kunlarda ham yayov yurib, aholi salomatligi uchun xizmat qilgani uning sadoqati va insonparvarligining yorqin



isbotidir.

Nuriddin har kuni “bugungi ishni ertaga qoldirmaslik” shiori bilan yashaydi. Uning hayotida har bir bemor bu nafaqat kasal, balki bir inson taqdiri, bir oila umidi, bir yurakning og‘rig‘idir.

Nuriddin Norbekov faqat yaxshi shifokor emas, u ham insonparvar, ham sirdosh do‘st. Har qanday so‘zni yuragida saqlaydi, yolg‘onni yoqtirmaydi. U bilan o‘tgan yillar, o‘sha samimiy do‘stlik onlari men uchun eng qimmatli xotiralardan biridir.

Mana shu fidoyilik va sofiyat samarasi sifatida Nuriddin Norbekov 2024-yilda II darajali “Salomatlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Bugun u‘ 60 yoshni qarshi olmoqda. Bu yillar halol mehnat, pok niyat va insonlarga xizmat bilan bezangan yillardir.

Aziz do‘stim, Nuriddin! Sizni 60 yoshingiz bilan chin qalbindan tabriklayman! Sizning mehnatingiz — bu shifo va rahmat, qalbingiz - nur, so‘zingiz - haqiqat.

Sog‘lik, tinchlik va zafarlar hamrohingiz bo‘lsin!

Sizning mislingizdagi insonlar bor ekan, yurtimizda mehr, insonparvarlik va sadoqat hech qachon so‘nmaydi.

Zayniddin NORMAN,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi, tibbiyot fanlari doktori.

Muttertag, Sabantuy, Maslenitsa, Vardavar

Samarqandda ularning hammasi nishonlandi

Shu kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab “Fuqarolik jamiyati haftaligi” kunlari bo‘lib o‘tmoqda. Mazkur haftalik ramziy ma’noda shunday nomlandi, aslida fuqarolik jamiyati faoliyatiga e‘tibor qaratgan holda bir oy davomida qator madaniy-ma‘rifiy, sport tadbirlari belgilangan.

O‘zbekiston nodavlat-notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat bo‘linmasi hamda viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi hamkorligida “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” shiori ostida bayram tadbiri va shu mavzuga doir fotosuratlar ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi.

Hududda yashovchi millat va elatlarning etnik-madaniy o‘ziga xosligini saqlash, jamiyatda millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va tinchlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida viloyatda 11 ta milliy madaniy markaz va bitta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda. 22 ta noislomiy ibodatxonalarda turli millat vakillarining urf-odat va diniy marosimlarini ado etishlari uchun

shart-sharoit yaratilgan.

Milliy-madaniy markazlar faollari tomonidan mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turli millat vakillarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator ishlar olib borilmoqda.

Xususan, rus xalqining “Maslenitsa”, tatar xalqining “Sabantuy”, koreys xalqining “Xitoy taqvi mi bo‘yicha Yangi yil bayrami” va “Chu-sok”, nemis xalqining “Super onaxonlar” kabi bayram va ko‘rik-tanlovlari keng nishonlanmoqda.

Milliy-madaniy markazlarning samarali faoliyat yuritishi uchun “Do‘stlik va nodavlat notijorat tashkilotlari uyi” tashkil etildi.

Ushbu binoda barcha milliy-madaniy markazlar joylashishi bilan birga ularning turli madaniy tadbirlar o‘tkazishi uchun barcha



sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, markazlarga bir dona avtobus, kompyuter jamlanmalari milliy liboslar olib berilgan.

Viloyatimizdagi 139 ta maktabda ta‘lim boshqa tillarda olib boriladi.

Ayni paytda Samarqandda millatlararo munosabatlar uzoq yillik an‘analari asosida saqlanib kelinmoqda, millat va elatlarning etnik-madaniy o‘ziga xosligini saqlash, jamiyatda millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va tinchlikni yanada mustahkamlash borasidagi tadbirlar tizimli davom ettirilmoqda.

Doston MALIKOV,
Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining viloyat bo‘limi rahbari.

Elektron sudlov: Samaradorlik va huquqiy muammolar

Bugungi kunda huquqiy davlatni barpo etish uchun faqat qonunlarning mavjudligi kifoya emas, balki ularning samarali ijrosini ta‘minlaydigan raqamli mexanizmlarni shakllantirish zarurdir. Elektron sud tizimi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan bo‘lib, u nafaqat fuqarolarga qulaylik yaratadi, balki sud ishlarining shaffofligini oshiradi, korrupsiya holatlarini kamaytiradi hamda davlat boshqaruvida ochiqlikni ta‘minlaydi.

Shu bois sud ishlarini yuritishda qog‘oz shakldan voz kechish maqsadida “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarining yuritilishini bosqichma-bosqich to‘liq elektron shakliga o‘tkazish choralari ko‘rilmogda. Sudlar faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarni joriy etish uchun zarur texnik infratuzilmalar yaratilib, ushbu yo‘nalishdagi normativ-huquqiy baza takomillashtirib borilmoqda.

Xususan, yaqinda Prezidentimizning “Sudlar faoliyatiga sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta‘minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

AFZALLIKLAR

Birinchidan, elektron sud tizimi eng avvalo, vaqt va mablag‘ tej-alishini ta‘minlaydi. Fuqarolar endilikda ariza topshirish yoki hujjat taqdim etish uchun sud binosiga kelishi shart emas. Hujjatlarni onlayn yuborish orqali vaqtni tejash bilan birga, inson resurslaridan samaraliroq foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ikkinchidan, elektron tizim oshkorlik va adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. Sud jarayonlari onlayn kuzatilishi, qarorlar ochiq e‘lon qilinishi natijasida fuqarolarning sud tizimiga ishonchi ortadi. Shu bilan birga, sudya va

tarafnlarning xatti-harakatlari tizimda qayd etilib, keyinchalik tahlil qilinishi mumkin.

Uchinchidan, elektron sudlar orqali hujjat aylanishi tezlashadi. Masalan, bir ish bo‘yicha da‘vo arizasi, javob arizasi yoki dalillar elektron shaklda yuborilib, qisqa fursatda ko‘rib chiqiladi. Bu esa iqtisodiy va fuqarolik sudlarida ortiqcha jarayonlarni bartaraf etadi.

MUAMMOLAR

Har qanday texnologik yangilik singari elektron sud tizimi ham ayrim kamchiliklardan xoli emas. Eng katta muammolardan biri axborot xavfsizligi masalasidir. Hujjatlarda maxfiy ma‘lumotlar saqlanadi, ularning internet tarmog‘ida himoyasiz qolishi esa sud ishi qatnashchilariga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi tizimdan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Birinchidan, axborot xavfsizligi masalasi dolzarb hisoblanadi. Sud jarayonida ishlatiladigan hujjatlar va shaxsiy ma‘lumotlar juda muhim bo‘lgani uchun ularni himoyalash uchun kuchli kibexavfsizlik choralarini ko‘rish zarur. Tizimdagi har qanday xakerlik hujumi yoki ma‘lumot sizib chiqishi jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, texnik nosozliklar yoki tizimdagi xatoliklar sud jarayonini sekinlashtiradi. Internet

tarmog‘ining sifati past bo‘lgan hududlarda fuqarolarning onlayn sud majlislarida qatnashish imkoniyati cheklanishi mumkin.

Yana bir muhim jihat - fuqarolarning raqamli savodxonligi masalasi. Chunki ayrim fuqarolar, xususan, keksalar yoki texnik savodxonligi past insonlar, elektron platformalardan foydalanishda qiynaladi. Bu esa sudga murojaat qilish imkoniyatini teng darajada ta‘minlashda muammolarni paydo qiladi. Zero, hamma ham elektron imzo, onlayn murojaat tizimi yoki raqamli hujjat aylanishi bilan tanish emas. Shu sababli tizimning keng joriy etilishi bilan birga aholining huquqiy va texnologik bilimini oshirish ham muhim.

Shuningdek, ayrim hollarda inson omilining yo‘qligi sud qarorlarining emosional va ijtimoiy jihatdan yetarli baholanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki sun‘iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan tizimlar ba‘zan inson hissiyotlarini to‘liq anglay olmaydi.

XULOSA O‘RNIDA

Umuman, elektron sud tizimi zamon talabi bo‘lib, u adolat, shaffoflik va samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Uni rivojlantirish orqali nafaqat sud tizimi isloh qilinadi, balki fuqarolarning davlat idoralari-ga bo‘lgan ishonchi, ularning huquqiy madaniyati va faolligi ham ortadi. Demak, elektron sud tizimini yanada takomillashtirish, uni hayotga to‘liq tatbiq etish nafaqat texnik masala, balki jamiyat taraqqiyoti va adolati davlat barpo etish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Nozima JAXONGIROVA,
Tozshkent davlat yuridik universiteti xususiy huquq fakulteti talabasi.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Asrarov Anvarga (2006-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Kurbanov Aminjonga (2023-yil 14-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xizbulina Gulsinaga (2025-yil 30-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Rustamov Farxod Soliyevichga (2024-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

GAZETA —

axborot yetkazuvchigina emas, fikrlar maydoni

Bugun ertalab shogirdimdan kelgan xabar kayfiyatimni buzdi:

“Gazeta nimaga kerak? Uning vaqti o'tganini nega yoshi kattalar tan olgisi kelmaydi?”, deb yozibdi bo'lajak jurnalist.

Bu tezkor axborot, telefondagi xabarlar, videolar, ijtimoiy tarmoqlar dunyosida o'sib kelayotgan avlodning qarashi. Ammo jurnalistika faqat yangilik tarqatish emas, u fikr uyg'otish, mulohaza qilishga chorlash, jamiyatning ongini shakllantirish jarayoni hamdir. Shu jihatdan, gazeta hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

YAPONIYA TAJRIBASI - SABOQ EMAS, DALIL

Kun chiqar mamlakatda raqamli texnologiyalar juda rivojlangan bo'lsa-da, aholi gazetadan voz kechmagan. Masalan, yirik yapon nashrlari - “Yomiuri Shimbun” va “Asahi Shimbun” har kuni millionlab nusxada chop etiladi.

- Bu yerda har bir xonadonda gazeta o'qish madaniyati bolalikdan shakllantiriladi, - deydi Yaponiyadagi vatan-doshimiz Bahodir Iskandarov. - Maktablarda bolalarga gazetadagi maqolalarni tahlil qilish, ijtimoiy muammolar haqida fikr bildirish odat bo'lib qolgan. Shu orqali ular faqat axborot olibgina qolmay, jamiyat hayotida faol fuqaro bo'lib ulg'ayishadi. “Ota” deganda bolaning ko'z o'ngida har tong qo'landa gazeta, choy ichayotgan inson gavdalanadi. Bu davlatda birgina nashr - “Mainichi Shimbun”ning adadi 8 million ekan. Yetkazib berish xizmati mukammal yo'lga qo'yilgan. Gazeta har tong obuna bo'lgan xonadonga kirib boradi. Bu oddiy texnik xizmat emas, madaniyatning bir qismi.

BIZDA-CHI?

O'zbekistonda ham bir paytlar gazetaga munosabat boshqacha edi. Har bir xonadonda “Xalq so'zi”, “O'zbekiston ovozi”, viloyat, shahar va tuman gazetalar bo'lardi. Odamlar gazeta varaqlar, undan hayotni his etardi.

Ammo bugun gazetalar soni emas, ularni o'quvchilar soni kamaymoqda. Bunga sabab ko'p: internet axboroti-



ning tezligi, yoshlarning diqqati qisqarishi, ayrim nashrlarning zamon bilan hamqadam bo'lmayotgani...

Biroq eng katta muammo yosh jurnalistlar qalamida. Ular ko'pincha ijtimoiy tarmoqda qisqa videolar tayyorlashga, “layk” orttirishga qiziqishadi. Ammo haqiqiy jurnalistika - bu surat emas, so'z orqali ta'sir etish san'ati. Yaxshi yozilgan maqola insonni o'yantiradi, fikrlashga majbur etadi, savol tug'diradi.

GAZETA - FIKR MAKTABI

Agar yoshlar yozishga erinmasa, har bir mavzuga ta'dqiqotchi ko'zi bilan yondashsa, gazetalarning nufuzi yana ortadi. Gazeta - bu fikr maydoni. Unda sening so'zing, jamiyatning og'rig'i, xalqning intilishi mujassam.

Gazeta o'qish madaniyatini qayta tiklasak, odamlar faqat xabarni emas, voqea sababini, ta'sirini, yechimini ham bilishga o'rganadi. Bu - tanqidiy fikrlashning, ongli avlodning asosi.

Dunyo raqamlashmoqda. Ammo raqamlar ichida inson qalbi, uning fikri ham yo'qolib ketmasin. Gazeta - ana shu qalbning ifodasi. Shunday ekan, gazetaning vaqti o'tgan emas, balki uning so'zini qayta eshittirish vaqti kelgan.

To'liqin SIDDIQOV.

Maktabda uzaytirilgan ta'lim xizmati yo'lga qo'yiladi(mi?)

Samarqand shahridagi 82-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'tgan o'quv yilida qurilib foydalanishga topshirilgandi. Qorasuv massivida joylashgan ta'lim maskani 1680 o'ringa mo'ljallangan. Ushbu muassasada bolalar uchun ovqatlanish tashkil etilganini eshitdik.

- 1-sinflar uchun uzaytirilgan ta'lim, ya'ni pullik ta'lim xizmatini tashkil etmoqchimiz, - dedi maktab direktori Isomiddin Nuratov. - Bu Vazirlar Mahkamasi-ning 343-sonli qarorida belgilangan. Bunda bolalar tushlikkacha o'qiydi, kunning ikkinchi yarmida esa dars tayyorlaydi, to'garak mashg'ulotlarida qatnashadi. Tabiiyki, kechgacha maktabda bo'lganidan keyin tushlikni maktab oshxonasida qiladi. Maktabimizda oshxona, ovqat pishirish uchun hamma shart-sharoitlar mavjud. Faqat bu xizmat ixtiyoriy, majburiy emas. Ayrim ota-onalar kun bo'yi ishdan bo'ladi, shuning uchun endigina maktabga borayotgan farzandini kinga berishni bilmaydi. Uyda odam bo'lmasa, bola darsdan keyin qarovsiz qolishi mumkin. Aslida shu maqsadda uzaytirilgan ta'lim tizimini joriy etmoqchimiz.

Bu yil maktabimizning 1-sinfiga 3 ta rus, 8 ta o'zbek sinflari uchun 385 nafar bola qabul qilindi. Ulardan asosan rus sinfida o'qiydigan bolalarning ota-onalari uzaytirilgan ta'limni yo'lga qo'yishimizni iltimos qilishdi. Ba'zi ota-onalar rus tilini bilmagan uchun bolasi bilan dars tayyorlay olmaydi. Shuning uchun ular bilan maktab o'qituvchilari darsdan keyin shug'ullanadi. Hozircha 40 nafar



1-sinf bolala-

ringning ota-onalari uzaytirilgan pullik ta'lim tizimiga xohish bildirishyapti. Faqat bitta muammo bor - hanuzgacha maktabimizning kadastr hujjati yo'q. Agar shu muammo bartaraf etilsa, hukumat qarori asosida pullik ta'lim xizmatini yo'lga qo'yamiz.

Turli ixtisoslashtirilgan maktablarda ishlaganman. Bunday maktablarda bolalar tushgacha o'qiydi, ularga maktabning o'zida tushlik beriladi, kunning ikkinchi yarmida qo'shimcha to'garaklarga qatnashadi va dars

tayyorlaydi. Shu sababli ixtisoslashtirilgan maktablarning reyting ko'rsatkichi yuqori, ko'rik-tanlovlarda yaxshi natija ko'rsatadi. Biz ham maktabimizning reytingini oshirish maqsadida uzaytirilgan ta'limni yo'lga qo'yishga harakat qilaypmiz.

Agar maktabda sharoit bo'lsa, boshlang'ich sinflarga ovqat tashkil qilishning yomon tomoni yo'q. Ixtisoslashtirilgan maktablarda yaratilgan shart-sharoitni maktabimizda ham yo'lga qo'ysa bo'ladi. Buning ortidan 3-4 kishi doimiy ishl bo'ladi. Men Toshkent shahrida o'nlab maktablarda bo'ldim va ularda ham tushlik ovqati o'zlarida tayyorlanadigan uzaytirilgan ta'lim xizmati bor. Shahar joylarda ayrim ota-onalar uzaytirilgan ta'limni ma'qul ko'radi.

Darhaqiqat, maktab direktorining gaplarida jon bor. Birinchi sinfga qatnaydigan bola darsdan keyin qarovsiz qoladigan bo'lsa, yaxshisi kechgacha maktabda darslarini tayyorlab o'tirgani ma'qul. Sababi, bolaning vaqti behuda sarflanmaydi, doim band bo'ladi va har xil narsalarga chalg'imaydi.

Bugun rivojlangan davlatlarda ham maktablar asosan uzaytirilgan ta'lim tizimida ishlaydi. Bolalar kunduzi maktabda bo'ladi. Darslarini maktabda tayyorlab kelgan bola kechqurun oila davrasida ota-onasi bilan ko'proq mu-loqot qiladi. Bu bolaning kelgusidagi o'qishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xurshida ERNAZAROVA.



Oliy ta'limdan keyingi ta'lim: O'qishni istovchilar nimalarni bilishi kerak?

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida tashkil etiladi.

Bunday ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi hisoblanib, tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc), mustaqil izlanuvchanlik (PhD va DSc) hamda stajyor-tadqiqotchilik shakllari mavjud.

Jumladan, stajyor-tadqiqotchilik — ishlab chiqarishdan ajralgan holda tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarini olib borish va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchini tayyorlash shakli;

- *tayanch doktorantura — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;*

- *doktorantura — fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;*

- *mustaqil izlanuvchanlik — falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.*

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga yagona elektron tizim (daraja.ilmiy.uz) orqali murojaat qilinishi va Nizomda belgilangan tartibda hujjatlar taqdim etiladi.

Nizom talablariga asosan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 6-oktyabrda tegishli qaroriga asosan, xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatiga kiritilgan sertifikatlar talab etiladi. Mustaqil izlanuvchanlik va stajyor-tadqiqotchilik shakllariga hujjat topshirishda xorijiy tilarni bilish sertifikati talab etilmaydi.

Bu institut faoliyati samaradorligi doimiy ravishda monitoring qilib boriladi. Masalan, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun izlanuvchilar o'qishning birinchi yilida dissertatsiya mavzusi bo'yicha reja tuzadi. Shuningdek, ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur, tegishli jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida bitta ilmiy maqola chop etish, ilmiy konferensiyada ma'ruza bilan ishtirok etish, ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi seminarida dissertatsiya mavzusiga doir tahliliy umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot natijalari bo'yicha (ilmiy rahbar bilan birgalikda) ma'ruza qiladi.

O'qishning ikkinchi yilida tegishli jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida bitta ilmiy maqola, ilmiy konferensiya materiallarida kamida bitta chop etilgan ma'ruza, tegishli xorijiy jurnalda kamida bitta ilmiy maqola, ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmasi (kafedra, laboratoriya, bo'lim, sektor)

ilmiy seminarida dissertatsiya ishining dastlabki natijalari bo'yicha (mustaqil) ma'ruza bilan ishtirok etish, dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejasining bajarilishi bo'yicha hisobot berish kabi talablarni bajaradi.

O'qishning uchinchi yilida jurnallarda, shu jumladan, xorijiy jurnallarda belgilangan talablarga muvofiq chop etilgan ilmiy maqolalar, Oliy attestatsiya komissiyasi talablariga muvofiq tayyorlangan tugallangan dissertatsiya ishi, avtoreferati, ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmalari majlislarida dissertatsiya va avtoreferatining ko'rib chiqilganligi va muhokama qilinganligi hisobga olinadi.

Izlanuvchilarning o'z vaqtida himoya qilishini ta'minlash maqsadida nafaqat tadqiqotchilarga, balki ularning ilmiy rahbar va konsultantlariga ham talablar qo'yiladi. Jumladan, yakka tartibdagi rejalarni bajarmagan doktorantur va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari va konsultantlariga kollegial organ qarori bilan rahbarlik va maslahat uchun to'lanadigan haq to'xtatiladi. Bunda doktorantur va mustaqil izlanuvchilarning rahbarlari hamda konsultantlari bir yil muddatga ilmiy rahbarlik qilishdan chetlatiladi. Muntazam ravishda (qatorasiga ikki marta va undan ko'p) izlanuvchilarning dissertatsiyalarini o'z vaqtida himoya qilishni ta'minlamagan ilmiy rahbarlar va konsultantlar uch yilgacha bo'lgan davrga ilmiy rahbarlik yoki konsultantlikdan chetlatilishi mumkin.

Doktorantur o'z arizasiga muvofiq, salomatligi tufayli, yakka tartibdagi rejalarni bajarmaganda, ilmiy yoki ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalarini tizimli (uch yoki undan ortiq) ravishda buzganda, sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinganda, hisobotlarni belgilangan muddatda taqdim etmaganda, dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish talabini buzganda o'qishdan chetlatilishi mumkin.

Yakka tartibdagi rejalarni bajarmagan doktoranturadan tayanch doktorantura yoki doktoranturadan chetlatiladi va o'qishga qayta tiklanmaydi.

2025-yildan boshlab, monitoring natijalari-ga ko'ra tegishli ixtisoslik bo'yicha dissertatsiyalarni belgilangan muddatlarda himoya qilmagan izlanuvchilar (ketma-ket uch nafar va undan ortiq) aniqlangan taqdirda, ushbu ixtisoslik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining faoliyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qaroriga muvofiq har yili mart oyida to'xtatilishi belgilandi. Bu esa izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasiga qat'iy amal qilgan faoliyat olib borishi lozimligini anglatadi.

Bugungi kunda ko'pgina oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakllari mavjud bo'lib, joriy yildan boshlab oliy ta'limdan keyingi ta'lim mavjud ilmiy muassasalarga kvotalar ajratishda ustivorlikka e'tibor qaratildi. Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida 11 ta ixtisosliklarda 80 nafar izlanuvchilar tahsil olmoqda. Shundan 34 nafari tayanch doktorantur hisoblanadi.

Bobur ESHONQULOV,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti prorektori.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

15-NOYABR

Nasiba ABDULLAYEVA - 1961-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

16-NOYABR

Hasan NORMURODOV - (1939-2021) Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Qahramoni.

19-NOYABR

Muhsinjon ASHUROV - 1949-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Fizik olim,

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

22-NOYABR

Isoq MUSABOYEV - (1910-2003) Farg'ona viloyatida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori, akademik.

Asror JO'RAYEV - (1911-1983) Samarqand shahrida tug'ilgan. Aktyor va rejissyor. O'zbekiston xalq artisti.

Muxtor O'RALOV - (1938-2014) Xatirchi tumanida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 844 nusxada chop etildi. Buyurtma 532. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda